



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

«KELISHILDI»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi
Kengashi xay‘at raisi
Zakimova 
«12» dekabr 2025 y.



«TASDIQLAYMAN»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi
direktori
L.X.Musadjanova 
«12» dekabr 2025y.



Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash

**Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va
jamoat salomatligi qo‘mitasi
laboratoriya laboranti (laboratoriya
laboranti)**

(sikli bo‘yicha ixtisoslashtirish guruhlar uchun)

O‘QUV DASTURI

(432 kredit)

Toshkent 2025 yil.

TUZUVChiLAR:

M.X.Yakubova

Toshkent shahar Yunusobod tumani
SEO va JSQ shifokor- epidemiolog

M.E.Qarshibayeva

Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika
xodimlari malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi Guliston filiali
direktori

TAQRIZChiLAR:

S.A.Muxamedjanova

Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika
xodimlari malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi

O.K.Sultanov

Toshkent shahar Yunusobod tumani
SEO va JSQ bo'limi boshlig'i

O'quv dasturi Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

«9 12 2025»y.

bayonnoma № 6

Pedagogik kengash raisi



L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

«12 12 2025»y.

bayonnoma № 5

1. KIRISH

Mazkur o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini qayta tayyorlash, ixtisoslashtirish, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatida laborantlik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizimni yaxshilash maqsadida yaratilgan. O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli "O'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablari", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 27 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi SSV huzuridagi Sanitariya Epidemiologik Osiyishtalik Jamoat Salomatligi qo'mitasi faoliyatini tashkil qilish chora tadbirlari" to'g'risidagi PF-230-sonli farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

"Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati laboratoriya laboranti" (SEOJSQ lab.laboranti) o'quv dasturi yo'nalishining o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, 7yildan 10 yilgacha mehnat stajida uzilish bo'lgan o'rta tibbiyot xodimlarini 432 kredit ixtisoslashtirish uchun mo'ljallangan. Dastur fanlar modullariga ajratilgan bo'lib: kasbiy rivojlanish modulida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2025 yil 15-avgustdagi "Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xodimlarning bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish haqida" 255-sonli buyrug'i ijrosini bajarish maqsadida "Tibbiyot sohasida korruptsiyaning oldini olish"moduli kiritildi. Kasbiy rivojlanish moduli ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm-fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy ta'limda uzluksizligi va uzviylikini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan. Dasturda sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasida vrach yordamchisi sifatida faoliyat olib borishni rejalashtirayotgan o'rta tibbiyot xodimlari lozim bo'lgan yangi bilim va ko'nikmalarni (bilishi mumkin, bilishi lozim, bajara olishi kerak va qaysi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishi lozim) yetarli darajada o'zlashtirishga qaratilgan materiallar taqdim etilgan.

1.1. Maqsad: Sanitariya-epidemiologiya sohasida laboratoriya tadqiqotlarini o'tkazish, atrof-muhit omillarini tekshirish va sanitariya nazoratini amalga oshirish bo'yicha zarur nazariy bilimlar hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. dastur orqali talabalarni sanitariya-epidemiologiya laboratoriyalarida ishlay oladigan, oziq-ovqat mahsulotlari, suv, havo va boshqa muhit obyektlarini laboratoriya usullarida tekshirishni biladigan malakali mutaxassis sifatida tayyorlash ko'zda tutiladi.

1.2. Vazifalar:

- Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va me'yoriy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay bilishni o'rgatish;
- tibbiyot sohasidagi yangiliklar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida amaliy ko'nikmalarini yangilash;
- nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlari bilan tanishtirish;
- sanitariya va epidemiologiya fanlarining nazariy asoslarini o'rgatish.
- atrof-muhit obyektlarini (suv, havo, tuproq, oziq-ovqat mahsulotlari) laboratoriya usullarida tekshirishni o'rgatish.
- mikrobiologik, bakteriologik va sanitariya-gigiyenik tadqiqotlar o'tkazish ko'nikmalarini shakllantirish.
- laboratoriya jihozlari va asboblardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish.
- sanitariya-epidemiologik nazorat tadbirlarida ishtirok etishni o'rgatish.
- laboratoriyada sanitariya-gigiyena va biologik xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni shakllantirish.
- laboratoriya tadqiqotlari natijalarini tahlil qilish va hujjatlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish.
- aholi salomatligini muhofaza qilishda sanitariya-epidemiologik nazoratning muhim ahamiyatga ega ekanligi;

- yuqumli kasalliklarning oldini olishda laboratoriya tadqiqotlarining katta roli;
- oziq-ovqat mahsulotlari, ichimlik suvi va atrof-muhitning sanitar holatini nazorat qilish zarurati;
- zamonaviy laboratoriya tadqiqot usullarining keng qo'llanilishi.
- to'g'ri tahlil bajarishda laboratoriyadagi barcha mavjud zamonaviy jihozlar, apparatlar bilan ishlash va ularni saqlashni bilish;
- tashqi muhit omillarini (kimyoviy, fizikaviy, biologik, psixogen va ijtimoiy) inson salomatligiga salbiy ta'siri va keltirib chiqaradigan kasalliklarini oldini olish, mehnat qilish qobiliyatini oshirish va umrini uzaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'rgatish;
- favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarni tahlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni ko'rsatish qobiliyatini yangilash.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti): O'quv dasturi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati laboratoriyalarida faoliyat yuritishni rejalashtirgan o'rta tibbiyot xodimlari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, ya'ni mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan, lekin mehnat stajida 3 yildan 7 yilgacha uzilish bo'lgan sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati laboratoriyalari laborantlari hamda, Respublika davolash profilaktika muassasalari turli yo'nalishlarida faoliyat olib borayotgan, keyinchalik sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi laboratoriyasi laboranti faoliyatini yuritishni rejalashtirgan, tibbiyot kollejini "Davolash ishi", "Akusherlik ishi" va "Hamshiralik ishi" yo'nalishlari bo'yicha mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan o'rta tibbiyot xodimlari uchun mo'ljallangan.

1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- amaldagi me'yoriy hujjatlar bilan ishlash, soha bo'yicha zamonaviy yutuqlardan xabardor bo'lib, uni amalda qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- SEOJSQ laboratoriya laborantlarning lavozimlik burchlarini bilishi;
- bolalar va o'smirlar muassasalariga qo'yiladigan asosiy gigiyenik talablarni bilishi;
- ovqatlanish gigiyenasi va oziq-ovqat mahsulotlarining sifatiga sanitariya gigiyenik baho berish asoslarini bilishi;
- toksikologiya bo'yicha zaharli ximikatlar qoldig'ini aniqlash usullari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi;
- bakteriologik, parazitologik va virusologik laboratoriyalarda tekshirish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- kommunal gigiyena, mehnat gigiyenasi borasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi;
- gigiyena va sanitariya haqidagi bilimlarga ega bo'lishi;
- tashqi muhit omillarining inson sog'ligiga ta'siri, ekologik muvozanat buzilishining atmosfera havosiga ta'siri, havoni ifloslantiruvchi manbalar haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda shifokorgacha birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

Sanitariya-epidemiologiya qo'mitasi laboratoriya laboranti dasturining dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi: aholi salomatligini muhofaza qilishda sanitariya-epidemiologik nazoratning muhim ahamiyatga ega ekanligi, yuqumli kasalliklarning oldini olishda laboratoriya tadqiqotlarining katta roli, oziq-ovqat mahsulotlari, ichimlik suvi va atrof-muhitning sanitar holatini nazorat qilish zarurati, zamonaviy laboratoriya tadqiqot usullarining keng qo'llanilishi. Shu sababli sanitariya-epidemiologiya sohasida ishlay oladigan malakali laboratoriya mutaxassislarini tayyorlash tibbiy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

1.6. Dastur hajmi: 432 kredit (kuniga 6 kredit, haftada 36 kredit).

1.7. O'qish shakli:

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy / an'anaviy o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi: Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" O'zR SSV 2020 yil 15 iyundagi № 160 buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar 9⁰⁰ da boshlanib, 13⁴⁰ da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

1.9. O'qish tugagandan so'ng beriladigan hujjat: o'quv kursni to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati laboratoriya laboranti" bo'yicha ixtisoslashtirishdan o'tganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim (natijalari)dan so'ng tinglovchi kompetensiyasi:

Umumkasbiy kompetensiyalar

- Sanitariya, gigiyena va epidemiologiya fanlarining nazariy asoslarini bilish.
- inson salomatligiga ta'sir etuvchi atrof-muhit omillarini tushunish.
- laboratoriyada sanitariya-gigiyena va biologik xavfsizlik qoidalariga amal qilish.
- tibbiy va laboratoriya xodimlari bilan samarali hamkorlik qilish.

Laboratoriya-amaliy kompetensiyalar

- atrof-muhit obyektlaridan (suv, havo, tuproq, oziq-ovqat) namuna olish.
- namunalarni qabul qilish, ro'yxatga olish va saqlash.
- mikrobiologik va sanitariya-gigiyenik tadqiqotlar o'tkazish.
- laboratoriya tahlil natijalarini qayta ishlash va baholash.

Mikrobiologik kompetensiyalar

- bakteriologik tekshiruvlar o'tkazish usullarini bilish.
- mikroorganizmlarni aniqlash va identifikatsiya qilish.
- oziq-ovqat va suvdagi mikrobiologik ifloslanishni aniqlash.
- ovqatlanish gigiyenasi va oziq-ovqat mahsulotlarining sifatiga sanitar-gigiyenik baho berish;
- toksikologiya bo'yicha zaharli ximikatlar qoldiqlarini zamonaviy usullarda aniqlash;
- bakteriologik va parazitologik laboratoriyada qo'llanilayotgan texnologiyalarni o'zlashtirish;
- virusologiyada qo'llanilayotgan texnologiyalarni o'zlashtirish;
- kommunal gigiyena, mehnat gigiyenasi va mehnat sharoitiga qo'yiladigan yangi sanitariya gigiyenik talablarni bilish;

Texnologik kompetensiyalar

- laboratoriya jihozlari (mikroskop, termostat, avtoklav va boshqalar) bilan ishlash.
- reaktivlar va oziq muhitlar tayyorlash.
- zamonaviy laboratoriya usullaridan (ekspres-testlar, PSR asoslari) foydalanish.
- zamonaviy tibbiy jihozlarni ishlatish, texnik ishlov berish va ishlatishni tashkil etish vazifalari takomillashadi;

Tashkiliy kompetensiyalar

- laboratoriya ishlarini rejalashtirish va tashkil qilish.
- sanitariya-epidemiologik nazorat tadbirlarida ishtirok etish.
- laboratoriya hujjatlarini to'g'ri yuritish.
- mehnat xavfsizligi va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish.

Kommunikativ kompetensiyalar

- mutaxassislar bilan kasbiy muloqot qilish.
- laboratoriya natijalarini tushunarli shaklda taqdim etish.
- kasbiy bilim va ko'nikmalarni doimiy ravishda rivojlantirish.
- yuklatilgan vazifalarni samarali bajarish uchun ish joyini talab darajasida ta'minlash va o'rnatilgan tartibda tibbiy hujjatlarni yurita olish;

3.0. DASTUR MAZMUNI

3.1. "Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi laboratoriya laboranti" 432 kredit ixtisoslashtirish kursi dasturi o'quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg'ulotlari		Attestatsiya
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	78	44	34	
1.1	Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish	6	6	-	
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	12	4	8	

1.3	Modul: Xorijiy til.	12	4	8	
1.4	Modul: Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me'yoriy hujjatlar.	6	6	-	
1.5	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.	6	2	4	
1.6	Modul: Infekcion nazorat.	12	8	4	
1.7	Modul: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik.	6	4	2	
1.8	Modul: Favqulotda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.	18	10	8	
2.0	Mutaxassislik fani modullari	348	116	232	
2.1	Modul: SEOJSQ laboratoriyalari tuzilishi, jihozlanish me'yorlari. Sohaga doir farmon, qaror va buyruqlar, me'yoriy hujjatlar.	18	6	12	
2.2	Modul: Bolalar va o'smirlar muassasalariga qo'yiladigan gigiyenik talablar.	48	16	32	
2.3	Modul: Ovqatlanish gigiyenasi. Oziq-ovqat mahsulotlarining sifatiga sanitariya gigiyenik baho berish.	54	18	36	
2.4	Modul: Kommunal gigiyena cohasiga oid laboratoriya tekshiruv usullari.	48	16	32	
2.5	Modul: Mehnat gigiyenasi. Mehnat sharoitiga qo'yiladigan sanitar gigiyenik talablar.	42	14	28	
2.6	Modul: Toksikologiya laboratoriyasi. Zaharli ximikatlar qoldig'ini aniqlash.	36	12	24	
2.7	Modul: Bakteriologik laboratoriya tekshirish usullari.	36	12	24	
2.8	Modul: Parazitologik laboratoriya tekshirish usullari.	36	12	24	
2.9	Modul: Virusologik laboratoriya tekshirish usullari.	30	10	20	
	Attestatsiya	6			6
	Jami:	432	160	266	6

“Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati laboratoriya laboranti” 432 kredit ixtisoslashtirish kursi o'quv dasturi modullarining mazmuni

1.1.Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va istiqbolga mo'ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishidagi nutqida belgilab berilgan. Sog'liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to'liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar.O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari. Yangi O'zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim.Islohotlar markazida “Inson qadri uchun”degan ezgu tamoyil ustuvor.Yurtimizda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish maqsadida halqaro tajribani chuqur o'rganish va amaliyotga samarali tatbiq etish borasida olib borilayotgan ishlar. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo'nalishlarning mazmun-mohiyati.“Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo'nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida shakllangan milliy qonunchilik tizimi, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari hamda sog'liqni saqlash tizimida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar. Davlat siyosatining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi asosiy yo'nalishlari. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatchilarining mas'uliyatini oshirish, raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish, ochiq ma'lumotlar tizimini rivojlantirish va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish.

1.2.Modul Tibbiyotda raqamli texnologiyalar. Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish,

tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo‘llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish. Internet tarmog‘ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma‘lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilishi kerak. “Tibbiyot informatikasi asoslari” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyot informatikasi asoslari, tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o‘rni;

hozirgi zamonda informatikaning o‘rni va roli, ma‘lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish

1.3. Modul. Xorijiy til. Ingliz tilini o‘qitishning maqsadi va vazifalari Tibbiyot xamshiralari ingliz tilini tanishtirish va tibbiyot soxasiga aloqadorligini tushuntirish xamda shu soxaga oid terminlarni o‘rganish. Ingliz tili alifbosidagi xarflar va asosiy qo‘llaniladigan terminlar. The verb “to be”, “to have” Introducing yourself. Tana a‘zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko‘p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o‘rgatish. Tana a‘zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko‘p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o‘rgatish. Ularni og‘zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o‘rgatish va qo‘llash. Tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o‘rgatish. Ularni og‘zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o‘rgatish va qo‘llash. Berilgan qo‘llanmalardan foydalangan xolda (At the doctor) mavzularida tinglovchilarni og‘zaki nutqini rivojlantirish

1.4. Modul. Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me‘yoriy hujjatlar. Sog‘liqni saqlash tizimini Davlat dasturlari, sog‘liqni saqlash tizimi islohotlariga oid Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishni asosiy yo‘nalishlari. Birlamchi tibbiy sanitariya yordamini isloh qilish. Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini milliy modulini yaratish. Shoshilinch tibbiy yordamni samarali va to‘liq tizimini yaratish. Aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan kasalliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish. Sog‘liqni saqlash tizimida yangi davr. Tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish. Respublikada epidemiologik barqarorlikka erishish va uni ushlab turish. Davlat xususiy - sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida islohotlarning mazmun mohiyati. Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining qarori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari. Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmining huquqiy asoslari. Sog‘liqni saqlash tizimidagi meyoriy hujjatlar.

1.5. Modul. Infeksiyon nazorat. Infeksiya haqida tushuncha. Epidemiologiya asoslari. Infeksiyon nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi. SanQvaM -0342-17, SanQvaM- 0317-15. Sanitariya epedimiologiya sohasida qo‘llaniladigan meyoriy hujjatlar. Ularning maqsadi, aholi salomatligini saqlash, kasallanishlarning oldini olish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish. Sanitariya qoida va meyorlari bo‘yicha ish olib borish. Tibbiy chiqindilarni yig‘ish, saqlash va yo‘q qilish. Karantin va o‘ta havfli yuqumli kasalliklar haqida umumiy ma‘lumotlar. Karantin va o‘ta havfli yuqumli kasalliklar guruhiga kiruvchi kasalliklar, ularning profilaktikasi. O‘ta havfli yuqumli kasalliklar aniqlanganda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasi. OIV va OITS haqida tushuncha. Avariya holatlar haqida ma‘lumot. Davolash profilaktika muassasalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktika hamda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o‘tkazish. SanQvaM bo‘yicha joriy va mukammal tozalash o‘tkazish. Qo‘llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo‘llarni yuvish tartibi.

1.6. Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi. Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo‘limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta‘minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

1.7. Modul. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik. Sog‘lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta‘siri, to‘g‘ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to‘g‘ri

tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

1.8. Modul. Favqulodda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.

Favqulotda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulotda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi. Tibbiy saralash (trij usuli) va evakuatsiya qilish. Transportirovka usullari. Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni aniqlash. Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish. Ommaviy talofat o'chog'ida birinchi yordam kursatish:

o'tkir qon ketishlarda birinchi tibbiy yordam, jarohatlarda, suyak sinishlarda va Krash sindromida birinchi yordam. Kuyish, turlari, belgilari. Kuyishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillari. Inson hayotiga xavf soluvchi holatlarda shoshilinch yordam ko'rsatish: cho'kishda birinchi yordam, bo'g'ilishda birinchi yordam, elektrdan shikastlanishda birinchi yordam, o'tkir zaharlanishlarda birinchi yordam, sovuq urishi va issiqlik urishida birinchi yordam, xasharotlar chaqishida va xayvonlar tishlaganda tez tibbiy yordam ko'rsatish. O'tkir yurak qon tomir va nafas yetishmovchiligi, kelib chiqish sabablari. Nafas yullari obstruksiyasi. Yot jism nafas yullariga tushganda Geymlix usulini ko'llash texnikasi. Terminal holatlar, klinik va biologik o'lim belgilari. Hayotiylikni ushlab turishni erta boshlash usullari. Yurak -o'pka reanimatsiyasi (SAB) va uni bajarish algoritmi. Kritik holatlar (xushdan ketish, kollaps, shok, koma). Turlari, sabablari, klinik belgilari va yordam ko'rsatish.

2.1. Modul. SEOJSQ laboratoriyalari tuzilishi, jihozlanish meyorlari. Sohaga doir farmon, qaror va buyruqlar, me'yoriy hujjatlar.

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan chiqarilgan mutaxassislikka oid buyruqlar va ular asosida ishlash. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar. Sanitariya epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatida laboratoriyalarning ahamiyati. SEOJSQ laboratoriya laborantlarining lavozimlik burchlari va vazifalari. Bo'lim laboratoriyasi va xonalarini asbob-uskunalar bilan jihozlash. Laboratoriyada mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidasi. Sanitariya va gigiyena tekshirish usullari. Standartlar. Sanitariya qoidalari va meyorlari. Tashqi muhit omillarining inson sog'lig'iga ta'siri. Tashqi muhitni inson salomatligiga ta'sirini o'rganish usullari. Sanitariya epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatida laborantlarning meyoriy hujjatlarini yuritish.

2.2. Modul. Bolalar va o'smirlar muassasalariga qo'yiladigan gigiyenik talablar. Bolalar va o'smirlar gigiyenasi bo'limining maqsad va vazifalari. Sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, sog'lom avlodni shakllantirish borasida olib borilayotgan ishlar. Bolalar va o'smirlar organizmi tuzilishining anatomik va fiziologik hususiyatlari. Bolaning antropometrik ko'rsatkichlari, o'sish va rivojlanishni baholash. Bolalar va o'smirlar muassasalari (maktabgacha ta'lim, maktab va kollejlarda, oliygohlar)ga qo'yilgan sanitariya-gigiyenik talablar, tibbiy xizmatning tashkil etilishi va sog'lomlashtirish ishlarini olib borilishi. Tibbiy ko'riklar, ularni tashkil qilish va o'tkazish tartibi. Kun tartibi, uni tuzishga bo'lgan talablar va baholash. Bolalar muassasalarida ovqatlanish tartibi. Menu, menyuni tuzishga bo'lgan talablar va tuzish. Oziq-ovqat mahsulotlaridan laborator tahlil uchun namunalar olish qoidalari va rasmiylashtirish, natijalarini baholash. Bolalar va o'smirlar muassasalari xonalar mikroiklimi (havo harorati, bosimi, namligi va harakatini aniqlash) meyorlari. Havo harorati, bosimi, namligi va harakatini aniqlash va natijalarni gigiyenik baholash. Yoritilganlik koeffitsientini aniqlash va gigiyenik baho berish.

2.3. Modul. Ovqatlanish gigiyenasi. Oziq-ovqat mahsulotlarining sifatiga sanitariya gigiyenik baho berish.

Ovqatlanish gigiyenasi bo'limining maqsad va vazifalari. Bo'limda yuritiladigan meyoriy hujjatlar. "Oziq - ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi qonunning mazmun va mohiyati. Asosiy oziq-ovqat mahsulotlari: oqsillar, yog'lar, uglevodlar, karbon suvlari, vitaminlar, mineral tuzlar va ularning inson organizmi uchun ahamiyati. Davlat andozalari bo'yicha tekshiruvlarni laboratoriya sharoitida o'tkazish. Go'sht va go'sht mahsulotlarining inson organizmi uchun ahamiyati, sifatini belgilovchi meyoriy o'lchovlar, laboratoriyada tekshirish uchun namuna olish tartibi. Baliq va baliq mahsulotlarini inson organizm uchun zarur oqsil, yog' va mineral tuzlarni olishdagi ahamiyati, laboratoriyada tekshirish uchun namuna olish tartibi, davlat andozalari asosida laboratoriyada organoleptik, fizik va kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash va natijalarni rasmiylashtirish. Sut va sut mahsulotlarini tekshirish uchun sinama olish, organoleptik tekshirish. Sut va sut mahsulotlarini zichligi, kislotaliligini, yog'ini aniqlash. Sut tarkibidagi surrogatlar (kraxmal, soda)ni mavjudligini tekshirish. Konserva mahsulotlarini sanitar-bakteriologik tekshirish, aerob va anerob mikroblarni aniqlash uchun namuna olish. Konserva shtampovkasi, germetikligini o'rganish. Konserva mahsulotlarini tarkibidagi quruq modda, tuz miqdorini aniqlash. Non va non mahsulotlarining laboratoriya tekshruvlari. (oziqlik qiymati, namligi, g'ovakligi, yumshoqligi, kislotaliligi). Non va non

mahsulotlarini organoleptik baholash uchun namuna olish va gigiyenik baholash. Ovqatdan mikroblar va mikrobsiz zaharlanishlar, ularni oldini olish chora-tadbirlari. Ovqat mahsulotlarini saqlash va transportirovka qilish. Umumiy ovqatlanish muassasalarini qurishni rejalashtirish, qurish va jihozlash, ekspluatatsiya qilishni sanitariya jihatidan nazorat qilish. Oshxona xodimlarining shaxsiy gigiyenasi va sanitariya bilimini nazorat qilish. Oshxona xodimlarini dispanserizatsiyadan o'tishini nazorat qilish. Tayyor taomlarni tekshirish usullari. Tayyor taomlarni tekshirish uchun sinama olish, organoleptik baholash, ovqat tarkibidagi yog', karbon suv, mineral tuz va kaloriyasini aniqlash. Taomnoma (menyu-raskladka) bo'yicha kaloriyasini hisoblash, ovqat tarkibidagi minerallar va vitaminlar miqdoriga baho berish, oshxonaning sanitariya-gigiyenik jihatdan tekshiruv xaritasini to'ldirish, ma'lumotnoma yozish.

2.4. Modul. Kommunal gigiyena cohasiga oid laboratoriya tekshiruv usullari. Kommunal gigiyena bo'limining maqsad va vazifalari. Ogohlantiruvchi va joriy nazorat, ularni o'tkazishda ishlatiladigan meyoriy hujjatlar va hisob shakllarini to'ldirish. Sanitariya qoidalarini buzganligi, to'xtatish va ruxsat etmaslik to'g'risidagi qarorlarni rasmiylashtirish. Suv ta'minoti manbalari va ichimlik suv sifati meyorlari. Suvni organoleptik, fizik, kimyoviy va bakteriologik tarkibini aniqlash. Ichimlik suvidan namuna olish qoidalari. Toza ichimlik suvini yetkazib berishda va sifatini nazorat qilishda laboratoriyaning ahamiyati. Ichimlik suvga qo'yiladigan Davlat standartlari talablari. Chiqindi suvlarini tozalash usullari, chiqindi suvlarning rN reaksiyasini aniqlash, suvni mexanik usulda tozalash. Tuproqning gigiyenik va epidemiologik ahamiyati, bakteriologik va gelmentologik tekshirishi uchun namunalar olish. Tuproqni muhofaza qilish, fizik kimyoviy tekshirishlar uchun tuproqdan sinama olish, geksoxloran va DDT ni aniqlash. Turar joy binosini sanitariya gigiyenik jihatdan tekshirish va kartasini to'ldirish. Yorug'lik koefitsentini aniqlash. Shovqin va shovqin darajasini aniqlash. Vibratsiyani o'lchash. Turar joy havosining harorati, namligi, harakat tezligi va atmosfera bosimini aniqlash va gigiyenik baholash, hujjatlarni rasmiylashtirish.

2.5. Modul. Mehnat gigiyenasi. Mehnat sharoitiga qo'yiladigan sanitar gigiyenik talablar.

Mehnat gigiyenasi bo'limining maqsad va vazifalari, meyoriy hujjatlari. Mehnatning sanitariya sharoitlarini o'rganish. Ishlab chiqarishda bo'ladigan zaharlanishlar va ularning sabablarini tekshirish. Ventilyatsiya, apparatlarining germetikligini samarali tekshirish. Ruxsat etilgan miqdor (REM) chegara konsentratsiyasini o'rganish. Ishlab chiqarishda qo'rg'oshin va simobni organizmga ta'sirini o'rganish. Kasb kasalliklari haqida tushuncha. Ishlab chiqarish changi va uning inson organizmiga zararli ta'siri. Davlat andozasiga asosan havo tarkibidagi changni aniqlash uchun gravimetrik usuli bo'yicha havodan namuna olish va tahlil qilish. Filtr qog'ozini o'lchashni o'rganish. Filtr qog'oziga olinadigan namunalar. Pnevmonioz, silikoz kasalliklari to'g'risida tushuncha, chang kasalliklarini oldini olish chora-tadbirlari. Ishlab chiqarish sanoat korxonalarida ishchi zonasida organizm uchun zaharli gazlarni ta'siri va ularni aniqlash. Mikroiklim haqida tushuncha, mikroiklim (termometr, psixrometr va anemometr asboblari) harorat, havo namligi, harakatini o'lchash va gigiyenik baho berish. Shovqin, vibratsiya va elektromagnit maydoni ko'rsatgichlarini ishchi organizmga ta'sirini aniqlash. Kasb kasalliklari va ularni oldini olish chora-tadbirlari. Ishchi xodimlar mehnat sharoitlarini yaxshilash va ularning salomatligini muhofaza qilish. Tahlillarga xulosa berish va meyoriy hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi.

2.6. Modul. Toksikologiya laboratoriyasi. Zaharli-ximikatlar qoldig'ini aniqlash.

Toksikologiya haqida tushuncha. Toksikologiya bo'limining vazifalari, toksikologik moddalarning keltirib chiqaradigan allergik, kanserogen va boshqa kasalliklari. Shaharlarda havoni ifloslantiruvchi eng asosiy manbaalar. Qozonxonalar, ularni isitish tizimlari, sanoat korxonalarida chiqindilari, avtotransportdan chiqadigan gazlar, qishloq xo'jaligida zaharli ximikatlar va mineral o'g'itlar tashqi muhit obyektlarida zaharli himikat qoldiqlarining paydo bo'lish sababidir. Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning mohiyati. Tuproq tarkibidagi geksoxloran, DDT, xlorofosni aniqlash. Endemik kasalliklar. Tuproqdagi zaharli moddaning (REM) PDKsini tekshirish. Tuproqning kimyoviy moddalar bilan ifloslanganlik ko'rsatkichini aniqlash. Turar joylarni ifloslanishi, avtomobil transportining rivojlanishi natijasida -zaharli gazlar, uglerod (II)-oksid, sulfid gazi, ammiak, azot oksidlari, vodorod sulfid, chang, Uglerod (II)-oksid gazini aniqlash texnikasi. Havodan sinama olish. Atmosfera havosining ifloslanishi aholi salomatligiga salbiy ta'sirlari. Tashqi muhit obyektlaridan havoning tarkibidagi uglerod (IV)-oksidini aniqlash uchun sinama olish. Zaharli o'simliklar tarkibidagi zaharli ximikatlardan zaharlanish. Xo'jalik - ichimlik suvi, tarkibidagi xlororganik zaharli ximikatlarni aniqlash. Suvdagi zararli moddalar normasini aniqlash. Aniqlash uchun natriy tiosulfat bilan titrlash, qo'shimcha koefitsiyentini aniqlash. Polimer, plastmass, kosmetika-parfyumeriya, qurilish materiallari, uy ro'zg'or anjom va mebellarning tarkibidan ajraluvchi toksik elementlar, sinflari, turlari va ularning tavsifi. Bu moddalar uchun ruxsat etilgan miqdor (REM) haqida tushuncha. Organoleptik, kimyoviy va fizikaviy tekshirishlarni o'tkazish. Laboratoriyaga keltirilgan namunalarni tahlil qilish uchun kerakli eritmalarni tayyorlash. Korxonalaridagi zaharli

birikmalarning organizmga ta'siri. Kasb tufayli zaharlanish va uning oldini olish chora-tadbirlari. Tahlilarga xulosa berish va meyoriy hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi.

2.7. Modul. Bakteriologik laboratoriya tekshirish usullari.

O'zbekistonda Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining yuqumli kasalliklarni oldini olishdagi o'rni. Bakteriologik laboratoriya tuzilishi, vazifalari, laboratoriya tekshirish usullari. Bakteriyalar morfologiyasi, asosiy shakllari va kattaligi, bakteriya polimorfizmi. Mikrobiologik laboratoriyada ishlash qoidalari. Bemordan tekshirish materialini yig'ish, ro'yxatga olish. Bo'yoqlar tayyorlash. Zich va suyuq ozuqa muhitida o'sgan mikroob kulturasidan va patologik materiallardan surtma preparatlarini tayyorlash, fiksatsiya qilish. Mikroblarning harakatchanligini aniqlash. «Ezilgan» va «Osilgan» tomchi preparatlarini tayyorlash. Tayyorlangan preparatlarni mikroskop ostida tekshirish. Asosiy ozuqa muhitlarini tayyorlash va ekish usullari. Mikroorganizmlarga fizikaviy, kimyoviy va biologik omillarning ta'siri. Aseptika va antiseptika. Dezinfeksiya, asosiy dezinfeksiyalovchi moddalar va ularning qo'llanilishi. Qo'lni va ish joyini dezinfeksiyalash. Laboratoriya shisha idishlarini (Petri kosachasi, probirka, pipetka, kolbalarni) sterilizatsiyaga tayyorlash va ularni sterillash. Sterilizatsiya apparatlari: sterilizator, avtoklav, Paster pechi bilan tanishish va ishlash rejimini o'rganish. Mexanik sterilizatsiya texnikasi bilan tanishish. Zeyts bakterial filtri, membrana filtrlari. Avtoklav ishini tekshirish. Antibiotiklar tasnifi. Mikroob hujayrasiga ta'siri. Bakteriyalarning antibiotiklarga sezgiriligini aniqlash usullari. «Infeksiya» va «Infeksion kasalliklar» haqida tushuncha. Patogen mikroblarga xarakteristika. Mikroob va toksinlarning organizmda tarqalishi. Kokklarning asosiy xossasini, keltirib chiqaradigan kasalliklari, epidemiologiyasi va patogenezini. Tekshirish materialini olish va laboratoriyaga jo'natish. Tekshirish materialini elektiv muhitiga ekish. Ekilgan muhitni namli, kislorodsiz sharoit yaratish uchun eksikatorida qoldirish. Biokimyoviy xossasini o'rganish. Antibiotikka sezuvchanligini aniqlash. Natija o'qish va javobini yozib berish. Ichak guruhi bakteriyalarining asosiy xossasi, keltirib chiqaradigan kasalliklari, epidemiologiyasi, patogenezini, profilaktikasi va davolash. Endo, Levina, Ploskiyova differensial diagnostik, 10%li o't suyuqligini, Rapoport, vismut-sulfit agar, Giss, Rassel, Olkenitskiy muhitlarini tayyorlash. Ularga najasni ekish. Shubhali koloniyani tanlab olish va ularning xossalarini o'rganish. Agglyutinatsiya reaksiyasini qo'yish. Havo-tomchi infeksiyalari. Klauberg, Tinsdal muhitlarini tayyorlash. Burun va halqumdan tampon yordamida surtma olish va ozuqa muhitiga ekish. O'sgan shubhali mikroob kulturasini sterioskopik mikroskop ostida o'rganish. Surtma preparat tayyorlash, Gram usulida bo'yash. Balg'amdan surtma preparat tayyorlash, uni Sil-Nilsen usulida bo'yash va mikroskop ostida tekshirish.

2.8. Modul. Parazitologik laboratoriya tekshirish usullari.

Parazitizm va parazitlar kasalliklar. Parazitlar tasnifi: gijjalari, bo'g'imoyoqlilar va sodda hayvonlar. Parazitologik laboratoriyalar tuzilishi, vazifalari, laboratoriya tekshirish usullari. Inson organizmida parazit hayot kechiruvchi gijjalari (gelmentlar), ularning yuqish yo'llari, patologik ta'sir qilishi. Gijjalarning tarqalishi. Gijjalarning tasnifi: nematodalar, sestodalar va trematodalar. Gijjalarning rivojlanish sikli, asosiy va oraliq xo'jayinlar. Nematodalar (ostritsalar, askaridalar, vlasoglav, ankilostomalar, trixinelalar) morfologiyasi, rivojlanish sikli, tuxumlari ko'rinishi, turlari epidemiologiyasi, profilaktikasi va klinikasi. Sestodalar (keng lentetslar, sistitserkoz, pakana gijja, exinokokklar) xususiyatlari, oraliq xo'jayinlari, tuxumlari morfologiyasi, epidemiologiyasi, klinikasi va profilaktikasi. Trematoda (opisthoroz, fassiolez, shistosomoz, klonoroz) morfologiyasi, rivojlanish sikli, tuxumlari ko'rinishi, turlari epidemiologiyasi, profilaktikasi va klinikasi. Gelmintozlarni tekshirish uchun material yig'ish, nativ preparatlarni, lyugol va eozinli preparatlarni tayyorlash, mikroskopik tekshirish. Gijja tuxumlari morfologiyasini aniqlash. Materialni boyitish usullari (cho'ktirish usuli, zakrutka qilish usuli) preparatlarni namoyish qilish. Gelmintozlar bilan kurashish. Bo'g'imoyoqlilar (bit, burga, chivin, kanalar). Bo'g'imoyoqlilar–infeksion kasalliklarning tashuvchilari morfologiyasi. Bo'g'imoyoqlilar keltirib chiqaradigan kasallik belgilari. Davolash. Asoratlari. Profilaktika chora-tadbirlari. Dezinfeksiya, deratizatsiya, dezinseksiya. Bo'g'imoyoqlilarni yig'ish metodlari. Parazitlar kasalliklarga namuna olish va tahlil uchun laboratoriyaga yuborish. Sodda hayvonlar (Iyamblya, amyoba, balantidiy, trixomanada, toksoplazma, bezgak plazmodiyasi). Bezgak. Laborator tashxislash. Tashuvchi ustidan kuzatish va unga karshi kurash chora-tadbirlari. Qon surtmalari va qalin qon tomchisini tayyorlash va ularni bezgakga tekshirish texnikasi. Leyshmaniozlar. Teri leyshmaniozi, visseral leyshmanioz. Kasallik belgilari, laboratoriya diagnostika metodlari. Profilaktikasi asosiy prinsiplari. Yaralardan surtmalar olish metodlari, suyak iligidan surtma tayyorlash. Surtmalarni ko'zdan kechirish. Leyshmaniozlar qo'zg'atuvchilarining preparatlarini ko'zdan kechirish. Toksoplazmoz. Toksoplazmozning laboratoriya diagnostikasi parazitologik tekshirishlar va immunologik reaksiyalarni aniqlash. Immunologik reaksiyalar qo'yish. Sekbin – Filtmon buyog'i. Turli organlardan biopsiya yo'li bilan olingan to'qima bo'lakchalari, orqa miya suyuqligi, qon, jasad organ bo'lakchalarini mikroskopiyaga qilish. Balantidioz,

qo'zg'atuvchisi biologik xususiyatlari, kasallik belgilari, laborator tashxislash, davolash profilaktika chora-tadbirlari. Lyamblioz. Biologik xususiyatlari, jahonda tarqalishi, yuqish yo'llari, kasallik belgilari, laborator tashxislash, davolash profilaktika chora-tadbirlari. Tahlillarga xulosa berish va meyoriy hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi.

2.9. Modul. Virusologik laboratoriya tekshirish usullari.

Virusologiya laboratoriyasi tuzilishi, vazifalari. Viruslar tuzilishi va tasnifi. Viruslarga xos hususiyatlar. Viruslarning organizmga kirishi va ko'payishi, tashqi muhitga va kimyoviy moddalarga chidamliligi. Tekshirish uchun material to'plash, asosiy tekshirish usullari, virusni ajratib olish. Virusologik kasalliklarni jahonda tarqalishi, yuqish yo'llari, kasallik belgilari, laborator tashxislash, davolash profilaktika chora-tadbirlari. Virusologik tekshirishlarni olib borish uchun ko'rsatmalar va laboratoriya tekshiruv uchun kerakli namunalarni olish qoidasi, ularni laboratoriyaga yetkazish. Viruslarni aniqlashda qo'llaniladigan zamonaviy tekshirish usullari. Serologik usul bilan tashxis qo'yish. IFA usulida tekshirish, Ekspress usulida tekshirish, IB-usulida tekshirish. PSR-usulida tekshirish, tahlilarga xulosa berish, meyoriy hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI.

4.1. O'quv bazalari: Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari.

Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran, videofilmlar.

Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'kuv xonasi mulyaj, fantom va boshqa jihozlar.

Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar.

4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha meyoriy hujjatlarini yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i.

4.3.2. Asosiy adabiyotlar:

1. SanQvaM № 0342/17. 10 yanvar 2017 yil.

2. Y.Allayorov Y.Tojiboyev: "Favqulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari".

3. Azizov M.A.: «Umumiy gigiyena va ekologiya» Toshkent, «Ilm ziyo», 2014 yil.

4. Esonturdiyev S.S., Qarshiboyeva M.E.: «Gigiyena va sanitariya tekshirishlar texnikasi» Toshkent, «Ilm ziyo», 2007 yil.

5. Do'schanov D.A., Iskandarova SH.T., Solixojayev S.S.: «Umumiy gigiyena» Toshkent, «Ilm ziyo», 2001 yil.

6. A.B.Ganixojayeva, X.A.Nazarova: «Mikrobiologiya» Toshkent, «Ilm Ziyo» nashriyoti, 2014 yil.

7. E.E.Eshboyev: «Mikrobiologiyadan amaliy mashg'ulotlar». Toshkent, «Ilm Ziyo» nashriyoti, 2011 yil.

8. Fayziyev Y.M., Fayziyeva X.A.: "Epidemiologiya va tibbiy parazitologiya» Toshkent, "Ilm ziyo" nashriyoti, 2007 yil.

9. Bo'ronov M.A., Mirjonov K.M.: "Tibbiyot parazitologiyasi va epidemiologiya asoslari". Toshkent, "Ilm ziyo" nashriyoti, 2004 yil.

4.3.3. Elektron ta'lim resurslari:

1. O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi – www.edu.uz

2. O'zR Sog'liqni saqlash vazirligi - www.minzdrav.uz

3. Medpoisk <http://www.medpoisk.ru/>

4. Russkiy meditsinskiy server <http://www.rusmedserv.com/>

5. Meditsinskiy katalog ROS-MEDIC <http://ros-medic.ru>

6. www.adti.uz

7. <http://www.medlinks.ru>

5.YAKUNIY ATTESTATSIYA

5.1. Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladigan talablar

Yakuniy attestatsiya O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyruq 3-ilovasidagi "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash to'g'risidagi Nizom" asosida o'tkaziladi.